

Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi natijalari

2023 18 Noyabr

Joriy yilning 15-17 noyabr kunlari poytaxtimizda Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasi bo'lib o'tdi. Uch kun davomida ko'plab madaniy tadbirlar, taqdimotlar, ko'rgazmalar, turizm sohasi mutaxassislarining chiqishlari o'tkazildi.



Uch kunlik TXY-2023 ko'rgazmasi doirasida Uzbekistan Airways milliy va xorijiy sayyohlik kompaniyalari, mehmonxonalar va reklama agentliklari bilan qator muzokaralar olib bordi. Xususan, butun dunyo bo'ylab mehmonxonalarni bron qilish, transportlarni ijaraga olish, diqqatga sazovor joylarga sayohat qilish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha onlayn xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar bilan hamkorlik uchrashuvlari o'tkazildi.



Ko'rgazmaga tashrif buyurganlar O'zbekistonning turli joylari, xususan, Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari kabi tog'li hududlarning sayyohlik salohiyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. "Uzbekistan Airways" AJ

tarkibiy bo'linmasi hisoblangan "Uzbekistan Helicopters" MChJ bir qancha taniqli sayyohlik agentliklari bilan B2B uchrashuvlari o'tkazdi va muzokaralar olib borishga muvaffaq bo'ldi.



Umumiy hisobda Uzbekistan Airways 50dan ortiq hamkorlik uchrashuvlarini o'tkazib turli xil kompaniyalar bilan kelishuvga erishdi. Mazkur xalqaro yarmarkalar aviakompaniya xizmatlarini taniqli kompaniyalar bilan bir qatorda taqdim etish uchun yana bir sabab va mijozlar bazasini ko'paytirish imkoniyatidir.



Uch kun davomida aviakompaniya stendiga mingdan ortiq odamlar tashrif buyurdi. Tadbir mehmonlari tanlovlarda qimmatbaho sovg'alar, vertolyot parvozi hamda Istanbul, Dubay, Pxuket va O'zbekiston shaharlariga aviachiptalar sertifikatini qo'lga kiritdilar. Uzbekistan Airways stendida yakuniy kunning diqqatga sazovor lahzasi DJ Pilgrimning chiqishi bo'ldi.



Ma'lumot uchun, TXYT yarmarkasi har yili turizm sohasidagi ko'plab mutaxassislarni o'zida jamlaydi va ushbu sohani jahon miqyosida rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.















